



## O'ZBEKISTONDA BOETIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

---

*Boymirzayeva Xurshida Sobirovna*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Ijtimoiy va  
gumanitar fanlar kafedasi o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Bioetikaning maqsadlaridan biri – inson xatti-harakati, ongi, ruhiyati va irsiyatini o'zgartirish maqsadida o'tkazilayotgan tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida O'zbekiston Bioetika milliy qo'mitasi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 2000-yilda tashkil etilgan. Milliy bioetika xizmatini barpo etish tajribasi boshqalarga o'rnak bo'la oladi. B.Ziyomuxamedov, A.S.To'xtayev, E.V.Qodirov, O.Qudratov, J.Xolmurodov, A.N.Nigmatov kabilar o'z tadqiqotlarida bioetika tushunchasi, uning mazmuni, atrof-muhit va inson munosabatlarining turli iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy aspektlari, ekologik ta'limning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rgandilar.

**Kalit so'zlar:** Bioetika, axloq, tibbiy etika, qonun, ilmiy-texnika taraqqiyoti, biogenetika, Bioetika milliy qo'mitasi, transpalantasiya

### ANNOTATION

One of the goals of bioethics is to develop criteria for limiting research conducted in order to change human behavior, consciousness, psyche, and heredity. The National Bioethics Committee of Uzbekistan under the Ministry of Health was the first in Central Asia to be established in 2000. The experience of establishing a national bioethics service can serve as an example for others. B.Ziyomukhamedov, A.S.Tokhtayev, E.V.Kadirov, O.Qudratov, J.Kholmurodov, A.N.Nigmatov, etc., in their researches, the concept of bioethics, its content, various economic, natural, social aspects of the environment and human relations, environmental protection studied the socio-philosophical aspects of lim.

**Key words:** Bioethics, ethics, medical ethics, law, scientific and technical development, biogenetics, National Bioethics Committee, transplantation

Bioetika – ma'naviyat sohasidagi ilm-fan yo'nalishlaridan biri; hozirgi zamon axloqshunosligining muhim sohasi. Bioetikada inson hayoti eng oliy axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi, insonlar va shaxslararo munosabatlarning ma'naviy-axloqiy omili, deb [qaraladi](#). Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini axloqiy



tamoyillar asosida tahlil etish asosida, tabiatni muhofaza qilish mas'uliyati bioetikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetikaning maqsadlaridan biri – inson xatti-harakati, ongi, ruhiyati va irsiyatini o'zgartirish maqsadida o'tkazilayotgan tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Bioetikaga taalluqli muammolarning turli jihatlari faylasuflar, huquqshunoslar, sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va ijtimoiy axloqshunoslar ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topmoqda. Bioetika muammosining dolzarblashuvi ilmiy-texnika taraqqiyoti, biogenetika, irsiyat texnologiyasi va gen injeneriyasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni muayyan maqsadga mos ravishda o'zgartirish imkoniyati yaratilmoqda.

O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasida bir qancha tizimli islohotlar bormoqda. Bundan ko'zlangan maqsad insonlarni sog'lig'i ta'minlash va hayotini saqlab qolishga bo'lgan urinishdir. Bu amaliy harakatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida amalda o'z ifodasini topmoqda:

1. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida O'RQ-528-son 11.03.2019-yil O'zbekiston Respublikasi qonuni.

3.2020-yil 6-yanvardagi «Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm- fani tizimini yanada rivolantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi farmon.

4.2020-yil 4-avgust «Covid-19 pandemiyasi davrida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon.

Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida O'zbekiston Bioetika milliy qo'mitasi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 2000-yilda tashkil etilgan. Milliy bioetika xizmatini barpo etish tajribasi boshqalarga o'rnak bo'la oladi. Milliy bioetika qo'mitalarini yaratishda Qirg'iziston Respublikasi va Turkmaniston olimlari O'zbekistonda ushbu xizmatni yaratish tajribasiga tayandilar. O'tgan yil oxirida tashkil etilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bioetika qo'mitalari assotsiatsiyasining shtab-kvartirasi Toshkentda joylashgan.

Mamlakatimizda 2017-yildan ko'pgina rivojlangan mamlakatlar qatori bemor tanasiga a'zo ko'chirib o'tkazish, xususan, jigar transplantiyasini amalga oshirishga ruxsat berildi. Bu esa albatta, ushbu kasallikdan azob chekaetgan bemorlarda tuzalib ketishga qayta umid uyg'otdi. 2018-yilda esa mamlakatimizda ushbu murakkab jarrohlik amaliyeti ilk marta muvaffaqiyatli bajarildi. «O'tgan qisqa muddat davomida yurtimizda 400 dan ortiq buyrak, 10 ga yaqin jigar transplantasiyasi muvaffaqiyatli bajarildi. Sog'liqni saqlash sohasi bioetika masalalarida (transplantiya bo'yicha) xalqaro amalietni o'tash va malaka



oshirishni yo'lga qo'ydi. Transplantatsiya bo'yicha jarrohlik amaliyotining O'zbekistondani samarali istiqboli uchun amaliy ishlar qilindi. Bir guruh o'zbekistonlik mutaxassislar Rossiya Federasiyasidagi akademik V. I Shumakov nomidagi transplantologiya va sun'iy organlar milliy tibbiyot ilmiy tadqiqot markazi jigar transplantatsiyasini o'tkazish bo'yicha malaka oshirib qaytishdi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni asosida belgilangan 22-maqсад ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-maydagi 275-son "Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiyaning bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokoli (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

"Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonun (O'RQ–768-son, 11.05.2022-y.) Qonunga mavofiq, inson a'zolari va to'qimalarini olish hamda ularning transplantatsiyasi davlat sog'liqni saqlash tizimining tibbiyot muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, ushbu muassasalarning ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini retsipiylarga transplantatsiya qilish inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi.

Transplantatsiya retsipiylarning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

Qonunga ko'ra, inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini uning murdasidan olishga uning tiriklik chog'idagi notarial tartibda tasdiqlangan yozma roziligi mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Tirik donorni undan a'zosini va (yoki) to'qimalarini olish uchun rozilik berishga majburlash taqiqlanadi.

Quyidagilarga nisbatan inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishga yo'l qo'yilmaydi:



- 18 yoshga to‘lmagan shaxslarga (bundan suyak iligini transplantatsiya qilish hollari mustasno);
- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga, shuningdek ruhiy holatning buzilishlariga (ruhiy kasalliklarga) chalingan shaxslarga;
- qamoqda yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga;
- I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga;
- homilador ayollarga;
- shaxsi aniqlanmagan shaxslarga;
- muayyan yashash joyi bo‘lmagan shaxslarga;
- “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchi shaxslarga;
- a‘zosi va (yoki) to‘qimalari ilgari transplantatsiya uchun olingan shaxslarga.

O‘zbekiston fuqarosi chet davlat fuqarosi bo‘lgan retsiyent uchun donor bo‘lishi mumkin emas.

Transplantatsiya qilinadigan inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekistondan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi.

Inson a‘zolaridan va (yoki) to‘qimalaridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek transplantatsiyaga muhtoj shaxslarga tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida Donorlarning, retsiyentlarning, shuningdek inson a‘zolarining va (yoki) to‘qimalarining yagona davlat reyestri tashkil etiladi.

Bugungi kunda nafaqat ta‘lim tizimida, balki oliy ta‘limidan ham boshlagan holda talabalarda bioetik madaniyatini rivojlantirish, bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirishni ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylantirmoqda. Ta‘limda zamonaviy raqamli va axborot texnologiyalarining. 1994-yildan jahonning barcha tibbiyot maktablariga bioetika kursini kiritish haqidagi JSST tavsiyalari bilan O‘zbekiston davlat ta‘lim tizimiga bioetika fani kiritilmagani o‘rtasidagi tafovut mavjud edi. O‘zbekistonda bioetika bo‘yicha tadqiqotlar 1998-yil uning tarkibiga kirgandan keyin boshlandi. “2003-2004-yillarda 1-ToshDTUda vrachlar malakasini oshirish (DTD) bioetika fakultativ kurs sifatida taklif qilingan. Prof. Z.Muhamedova muallifligida 2004, 2005, 2007, 2009, 2015-yillarda bioetika bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, monografiya, darsliklar chop etildi”. O‘zbekiston, Gruziya, Moldava, Rossiya va Tojikistonda bioetika davlat o‘quv standartiga kiritilgan. O‘zbekistonlik olimlardan B.Ziyomuxamedov, A.S.To‘xtayev, E.V.Qodirov, O.Qudratov, J.Xolmurodov, A.N.Nigmatov kabilar o‘z tadqiqotlarida bioetika tushunchasi, uning mazmuni, atrof-muhit va inson munosabatlarining turli iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy aspektlari,



ekologik ta'limning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rgandilar. L.T.Shonosirovaning ilmiy tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekoetik kompetentlikni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. M.A.Yuldashev, M.M.Abdullayeva, N.Ashurovalarning ilmiy tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimni shakllantirish, P.S.Sultonov va B.P.Ahmedovlarning kitobida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslariga oid masalalar tadqiq etilgan. Pedagog olimlardan I.Sh.Ismatov atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni maktab o'quvchilarida anorganik kimyo fani asosida shakllantirish borasida, M.R.Xalilova ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida o'z e'tiborini maktabgacha ta'lim muassasalari katta guruh yoshidagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish, N.O'.Nishonova esa adabiy ta'lim jarayonida, aniqrog'i uning ko'magida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ekoetik kompetentligini rivojlantirish muammolarini tadqiq qilishgan. M.B.Rahimqulova tadqiqotining o'ziga xosligi unda ekologik qadriyatlarni darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish masalasiga bag'ishlangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida 265-I-son qonuni ( 1996-yil 29- avgust,);
- 2.O'R fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida 265-I-son qonuni ( 1996-yil 29-avgust,)ga asosan O'zbekiston Respublikasi SSVining 2019 yil 17 iyuldagi 161-son tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi to'g'risidagi buyrug'i.
- 3.Muxamedova Z.M., Umirzakova N.A. Bioetik atamalarning izohli lug'ati. Toshkent. 2020 y.
4. Muxamedova Z.M., Umirzakova N.A. "БИОЭТИКА" o'quv qo'llanma. T.2020. 5.Юлдашев Н. М., Сайдалиходжаева О.З., Саидов А.Б. "Биоэтика", Учебник. Ташкент. 2018.
- 6.Ушаков Е.В. Биоэтика, Учебник и практикум. Москва. 2016.
- 7.O.R.Parpiyeva, O.O.Dzhaloldinova //The role of Valeology in raising a healthy generation// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. <https://zienjournals.com>. 04-10-2022. 1-3 pages.